DARS JARAYONIDA KONTSEPTUAL JADVALLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich
Guliston davlat pedagogika institute O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Qaljigitova Sabinabonu Taspolat qizi
Guliston davlat pedagogika instituti qozoq tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonini vizuallashtirish, uning mohiyati hamda kontseptual jadval, grafik organayzerlarning turlari, ularni qo‘llash tartibi hamda didaktik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur hodisa yuzasidan taniqli olimlarning pedagogik qarashlari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, vizuallash, kontseptual jadval, grafik, grafik organayzer, rasm, diagramma, jadval, sxema, video, slayd.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: “Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’limi va tarbiyasi deb javob beraman”, deya aytgan e’tiroflari, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida o‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi, mukammal bilim sohiblari bo‘lib kamol topishlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko‘rsatadi [6; 7; 696].

Axborot texnologiyalar asrida bugungi kunda yoshlarimiz shiddat bilan o‘rganib borayotgan innovatsion texnologiyalar bilan uqtirib borish o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim, salohiyat egasi bo‘lishi bilan bir qatorda ta’limga innovatsion yondashish, qolaversa, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda ta’lim sifatini yanada oshirish muhim ahamiyatga molikdir. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyatida o‘quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar bilan ta’lim jarayonida yetarli darajada samaraga erishishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [1; 11].

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri ta’lim sifatini oshirish hamda yangi avlod o‘qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirishdin iborat. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qitish jarayonini vizuallashtirish, ya’ni bilimlarni tuzilmali va mantiqiy ravishda shakllantirishning innovatsion usullari, xususan, kontseptual jadvallar va grafik organayzerlardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

A.Shodievning e’tiroficha, vizual vositalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun, nafaqat ta’limni samarali tashkil etish, balki o‘quvchilarning kreativ va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi [10; 8]. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida kontseptual jadval hamda grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish metodikasining samaradorligiga qaratilgan fikrlar tahlil qilinadi.

Kontseptual jadval va grafik organayzerlar mavzuga oid ma’lumotlarni tizim va mantiqiy aloqalar asosida taqdim etishga xizmat qiluvchi vizual vositalardir. Ular o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni anglash, muhim ma’lumotlarni aniqlash, umumlashtirish va taqqoslash imkonini beradi. Vizual vositalarning ilmiy asoslari kognitiv psixologik, konstruktiv ta’lim nazariyalari va pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

Ta’limda vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, bilimlarni tizimlashtirish, tahlil qilish, yangicha yondashuvlarni qo‘llash kabi kompetentsiyalar shakllanishiga yordam beradi.

Taniqli olim R.E.Mayerning “Kognitiv multimedia ta’lim nazariyasi”ga ko‘ra, vizual vositalar didaktik mavzu mazmunini ma’lumotlarini grafik, rasm, diagramma, jadval, sxema, video, slayd kabi ko‘rinishda taqdim etishda qo‘llanila-digan didaktik vositalardir [3; 44].

Kontseptual jadval va grafik organayzerlar mavzuga oid ma’lumotlarni tizim va mantiqiy aloqalar asosida taqdim etishga xizmat qiluvchi vizual vositalardir. Ular o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni anglash, muhim ma’lumotlarni aniqlash, umumlashtirish va taqqoslash imkonini beradi. Vizual vositalarning ilmiy asoslari kognitiv psixologik, konstruktiv ta’lim nazariyalari va pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

Ta’limda vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, bilimlarni tizimlashtirish, tahlil qilish, yangicha yondashuvlarni qo‘llash kabi kompetentsiyalar shakllanishiga yordam beradi.

O‘quvchilari bilimini chuqurlashtirishda bu vositalardan to‘g‘ri foydalanish o‘qituvchi salohiyatiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida bu o‘qitish qurollaridan samarali foydalanish kompetentligini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Vizual vositalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish metodikasining mazmunini nazariy asos, amaliy va tahliliy ko‘nikmalar majmui tashkil qiladi: nazariy asos kontseptual jadval va grafik organayzerlarning nazariy jihatdan asoslab berilishini nazarda tutadi; amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar esa bo‘lajak o‘qituvchilarni vizual modellar tuzishga o‘rgatadi hamda tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish talabalarda ma’lumotlarni tahlil qilish, tizimlash va umumlashtirish usullarini qo‘llash ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Sanab o‘tilgan metodika asosida, maxsus treninglar, amaliy mash‘ulotlar, metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqildi va joriy etilishi ta’limiy faoliyat jarayonida talabalarda bilimlar tizimli shakllanishi hamda ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyati shakllanishiga xizmat qiladi. Kontseptual jadvallar ma’lumotlarni qisqa, ixcham shaklda ko‘rsatish imkonini beradi, bilimlarni tizimga soladi va o‘rganish jarayonini osonlashtiradi. Grafik organayzerlar esa talabalardagi mavjud turli tarqoq bilimlarni o‘zaro bog‘liqlikda vizual ravishda namoyon qilish orqali murakkab tushunchalarni anglashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboqulova N.Q. Adabiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda metodlar ahamiyatli jihatlari. “Musiqa ta’limi va san’atining bugungi globallashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar”. Mustaqil ta’limni tashkil etishning samarali usul va vositalari. https://research.nordicuniversity. org/index.php/nordic /article/ download/1263/927/4223.

2. Heinich, R., Molenda, M., Russell, J.D., & Smaldino, S.E. (2002). Instructional Media and Technologies for Learning. Merrill.

3. Mayer, R.E. (2001). Multimedia Learning. Cambridge University Press. – P. 44.

4. Novak, J.D., & Gowin, D.B. (1984). Learning How to Learn. Cambridge University Press.

5. Sattarova N.U. The emergence of the competence approach in the educational system and its importance today. “Science and innovation”, 2023;

6. Sharipova Z., & Abdusamatova, G. (2022). Modern methods of teaching computer science. *Евразийский журнал математической теории и компью-терных наук*, *2* (14), 66–70.